# Uzbekistan Airways Express qoʻl yukining yangi miqdori

**2024 7 Iyun**

Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlari uchun bepul qoʻl yukini tashish me’yorini oshiramiz! Endilikda siz oldingi 5 kg oʻrniga 8 kg qoʻl yuki bilan sayohat qilishingiz mumkin.

Ushbu aviaqatnovlarda bagajni tashish shartlari oʻzgarmagan va bagajni tashish huquqiga ega tariflar boʻyicha aviachipta xarid qilgan yoʻlovchilar uchun 1 ta joyga ruxsat beriladi:

- Kattalar va 2 yoshdan katta boʻlgan bolalar uchun – 23 kg dan oshmasligi kerak (158 sm);
- 2 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun – 5 kg dan oshmasligi kerak (115 sm).

Bepul bagajni tashish me’yorlari haqida ma’lumotni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com saytining “Muhim ma’lumot” boʻlimida olishingiz mumkin.